



OZOD SHARAFIDDINOV: MEHR-MURUVVAT VA MA'RIFAT UYG'UNLASHGAN SIYMO

Bayjol Baxit Sardarbekuli

O'zbekiston Jurnalistika va Ommaviy kommunikatsiyalar
Universiteti,

PR va Menejment fakulteti, Axborot xizmati va jamoatchilik bilan
aloqalar yo'nalishi 2-kurs talabasi.

"Gulxan" jurnali Badiy musahhihi.

"Nurli yol" qozoq gazetasi jamoat muhbiri.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18692993>

ARTICLE INFO

Received: 31st January 2026

Accepted: 5th February 2026

Published: 19th February 2026

KEYWORDS

Ozod Sharafiddinov, ustoz-shogird munosabati, Jahon adabiyoti, diniy tafakkur, adabiy tanqid, Cho'lpon, G'afur G'ulom, tarjimonlik, ma'naviyat.

ABSTRACT

Mazkur maqolada taniqli adabiyotshunos olim Ozod Sharafiddinovning ilmiy merosi bilan bir qatorda uning insoniy fazilatlari ham tahlil qilinadi. Xususan, 2006-yilgi Jahon adabiyoti jurnalida hindistonlik tadbirkor Govinda Ram tomonidan yozilgan xotiralar hamda 2010-yil 10-sonida Shukur Qurbon tomonidan keltirilgan esdaliklar asosida olimning ustozlik fazilati, mehribonligi va talabchanligi yoritiladi. Shuningdek, "G'aroyib haqiqatni kashf etdim" asaridagi diniy-axloqiy qarashlari, "Cho'lponni anglash" hamda "G'afur G'ulomning kulgusi" asarlaridagi estetik yondashuvi, ilmiy izlanishlari va tarjimonlik mahorati ilmiy asosda baholanadi.

KIRISH QISMI

Adabiyotshunoslik tarixida shunday olimlar borki, ularning ilmiy merosi bilan bir qatorda shaxsiy fazilatlari ham alohida e'tiborga loyiqdir. Bunday siymolar ilmiy maktab yaratish bilan birga, shogirdlar qalbida ma'naviy iz qoldiradi. O'zbek adabiyotshunosligining ana shunday yorqin vakillaridan biri — Ozod Sharafiddinovdir.

U nafaqat Cho'lpon, G'afur G'ulom singari adiblar ijodini yangicha talqin qilgan olim, balki mehribon ustoz, keng dunyoqarashli ziyoli va chuqur diniy-ma'rifiy bilimga ega shaxs sifatida ham e'tirof etiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada tarixiy-qiyosiy, matnshunoslik va biografik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Adibning asarlari matni tahlil qilindi;

Xotira va esdaliklar (jumladan, Shukur Qurbon va Hindistonlik tadbirkor Govinda Ramning yozganlari) o'rganildi;

Ilmiy maqolalar va adabiy manbalar bilan qiyosiy tahlil amalga oshirildi.

Ushbu metodlar orqali Ozod Sharafiddinovning ma'naviy-ma'rifiy qarashlari kompleks tarzda ochib berildi.

ASOSIY QISM

2006-yilda "Jahon adabiyoti" jurnalida hindistonlik tadbirkor Govinda Ram Ozod Sharafiddinov bilan bog'liq xotiralarini bayon etadi. Unda ustoz va shogird o'rtasidagi

munosabat otalik mehriq qiyoslanadi. Ramning ta'kidlashicha, Ozod aka uni o'z farzandidek ko'rgan, tez-tez suhbat qurib turgan, bir necha kun ko'rinmay qolsa, tashvish bilan telefon orqali holidan xabar olgan.

Ayniqsa, Ramning otasi og'ir kasal bo'lib qolgan paytda yuz bergan voqea olimning insoniy qiyofasini yanada yorqinroq ochadi. Samolyot chiptasi topilmay qolganida Ozod Sharafiddinov birgina qo'ng'iroq bilan muammoni hal etadi va shogirdining otasi bilan so'nggi bor uchrashishiga sababchi bo'ladi. Bu voqea ustozning rahmdilligi va mas'uliyatini ko'rsatuvchi dalildir.

2010-yil 10-sonda e'lon qilingan Shukur Qurbonning xotiralari ham Ozod Sharafiddinovning ustozlik qiyofasini tasdiqlaydi. Yosh ijodkorning ilk kitobi nashr etilishiga ko'maklashgani, ish topishida yordam bergani, zarur paytda esa keskin tanbeh bilan irodasini mustahkamlagani ustozning pedagogik prinsiplarini ko'rsatadi. U yupatishdan ko'ra, chiniqtirishni afzal bilgan.

"G'aroyib haqiqatni kashf etdim" asarida Ozod Sharafiddinov insoniyatni o'zaro mehr-oqibatga chorlaydi. Unda Injildan oyat keltirib, "Yaqinlaringizni yaxshi ko'ringlar" degan aqidani eslatadi. Bu fikrlar olimning diniy bilimga ega ekanini va dinni umuminsoniy axloq mezonni sifatida anglaganini ko'rsatadi.

Sharafiddinov uchun din — ajratish vositasi emas, balki insonni komillikka yetaklovchi ma'naviy qadriyatdir. Uning da'vati — bir-birini sevisht, yaxshilikni ayamasklik — ilmiy qarashlari bilan hamohang tarzda insonparvarlikka asoslanadi.

Ozod Sharafiddinovning "Cho'lponni anglash" asari Cho'lpon ijodini mafkuraviy qoliplardan xalos etgan muhim tadqiqotdir. U Cho'lponni siyosiy emas, estetik mezonlar asosida talqin qiladi.

Tadqiqot jarayonida olim Toshkentdagi Turon kutubxonasi fondlarida saqlanayotgan eski o'zbek alifbosidagi "Zarafshon", "Turkiston", "Yosh leninchi", "Qizil O'zbekiston", "Mushtum" kabi gazeta-jurnallarni o'rganib chiqqan. Bu esa uning matnshunoslik salohiyati va eski yozuvni mukammal bilganini ko'rsatadi.

Shuningdek, u turli asarlarni tarjima qilgan. Jumladan, Vladimir Lenin asarlari hamda qozoq davlat arbobi Dinmuhammed Qonayev bilan bog'liq manbalarni o'zbek tiliga o'g'irgan. Bu uning ko'p tilli, yetuk tarjimon bo'lganini tasdiqlaydi.

"G'afur G'ulomning kulgusi" asarida esa u G'afur G'ulom ijodini ijobiy jihatlari orqali ochishga harakat qiladi. Bu yondashuv olimning ichki pokligi va xolis ilmiy pozitsiyasidan dalolat beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR.

"G'aroyib haqiqatni kashf etdim" asarida Ozod Sharafiddinov haqiqat tushunchasini chuqur falsafiy va diniy nuqtai nazardan sharhlaydi. U insonni o'zini anglashga, qalb pokligiga va ma'naviy kamolotga chorlaydi. Asarda Injili karim oyatlari va diniy tushunchalarga murojaat qilinishi uning din ilmidan ham xabardor, savodli shaxs bo'lganini ko'rsatadi.

Bu jihat adibning dunyoqarashi keng bo'lganini, u faqat adabiyot bilan cheklanmaganini tasdiqlaydi. U dinni jaholat emas, balki ma'rifat manbai sifatida ko'radi.

Shukur Qurbon xotiralarida ham Ozod aka mehribon, ochiqqo'l, oqko'ngil va hazilkash inson sifatida tasvirlanadi. Ramga otasining og'ir kasalligi paytida yordam berib, Hindistonga shoshilinch ravishda uchishiga ko'maklashgani ustozning insoniy fazilatlarini yaqqol namoyon etadi. Bu voqea uning shogirdlariga nafaqat ilmiy, balki insoniy jihatdan ham tayanch bo'lganini ko'rsatadi.

Natijada quyidagi xulosalarga kelindi:

Ozod Sharafiddinov adabiy tanqid bilan birga ma'naviy tafakkur targ'ibotchisi ham bo'lgan. Uning asarlarida diniy-ma'rifiy qarashlar chuqur va asosli ifodalangan. Ustoz-shogird an'anasini dvom ettirishda ham uning o'rni beqiyos.

Uning merosi bugungi ma'naviy muammolarni anglashda ham dolzarbdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ozod Sharafiddinovning ilmiy va ma'naviy merosi zamonaviy jamiyat uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Uning asarlaridagi haqiqat, e'tiqod va ma'naviyat haqidagi fikrlar bugungi globallashuv davrida ham o'z qimmatini yo'qotmagan.

Takliflar:

1. Adibning diniy-ma'rifiy qarashlarini alohida ilmiy tadqiqot obyekti sifatida o'rganish;
2. Uning asarlarini yoshlar o'rtasida keng targ'ib qilish;
3. Ustoz-shogird an'anasini rivojlantirishda uning tajribasidan foydalanish.

FOYDALANILGAN MANBALAR:

1. Sharafiddinov, O. "Tanlangan asarlari".
2. Sharafiddinov, O. "G'aroyib haqiqatni kashf etdim."
3. "Jahon adabiyoti jurnali "
4. Govinda Ram va Shukur Qurbonning xotiralari.
5. Wikipedia.

INNOVATIVE
ACADEMY